



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I

2024 - yil 10 - yanvar

VI-68-4-4-0-K/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2024-yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'ini hisoblashning minimal miqdoriga koeffitsiyentlarni qo'llash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, viloyat Soliq boshqarmasining 2023-yil 4-dekabrdagi 19/10-98159-sonli xati hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan Qashqadaryo viloyatida yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 36,0 mln so'm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 320 so'm, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda viloyatning tumanlarida ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun 1,2 mln so'm (*viloyat markazi 2,0 mln so'm*) minimal miqdor belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hamda viloyat Soliq boshqarmasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman (shahar)lar bo'yicha 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig'i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash hamda tumanlardagi

yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-sonli Farmoni bilan belgilangan toifalarga asosan hamda tuman (shahar)larning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2024-yilda Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **1-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo'yicha (*dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari*) mutlaq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent **2-ilovaga** hamda yuridik shaxslar uchun (*yirik soliq to'lovchilardan tashqari*) mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman (shahar)lar xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, 1 va 2-ilovaga asosan qo'llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlari tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2024-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini hududlardagi soliq organlariga taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Viloyat Soliq boshqarmasi hamda hududiy soliq organlari 2024-yil uchun yuridik shaxslarning (*yirik soliq to'lovchilardan tashqari*) mol-mulkiga solinadigan soliqni ushbu qaror bilan, qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta'minlasin.

7. Viloyat hokimligi Axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (A.Sodiqov) mazkur qarorni viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

8. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 13-yanvardagi "Qashqadaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash to'g'risida"gi VI-56-1-4-0-K/23-sonli hamda 2023-yil 7-fevraldagi "Qashqadaryo

viloyatida 2023-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo'llash to'g'risida"gi VI-57-11-4-0-K/23-sonli qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Azimov

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2024-yil 10-yanvardagi
VI-68-4-4-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar
bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq
stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi
KOEFFITSIYENTLAR**

T/R	Hududlar	Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi (SK 429 -moddasi)	koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi (so‘mda)
1	Qarshi shahri	36 000 000	1.15	41 400 000
2	Shahrisabz shahri	36 000 000	1.15	41 400 000
3	G‘uzor tumani	36 000 000	0.90	32 400 000
4	Dehqonobod tumani	36 000 000	0.70	25 200 000
5	Qamashi tumani	36 000 000	0.75	27 000 000
6	Qarshi tumani	36 000 000	0.90	32 400 000
7	Koson tumani	36 000 000	1.00	36 000 000
8	Kitob tumani	36 000 000	1.00	36 000 000
9	Muborak tumani	36 000 000	0.80	28 800 000
10	Nishon tumani	36 000 000	0.80	28 800 000
11	Kasbi tumani	36 000 000	0.80	28 800 000
12	Chiroqchi tumani	36 000 000	0.90	32 400 000
13	Shahrisabz tumani	36 000 000	0.90	32 400 000
14	Yakkabog‘ tumani	36 000 000	0.90	32 400 000
15	Mirishkor tumani	36 000 000	0.70	25 200 000
16	Ko‘kdala tumani	36 000 000	0.70	25 200 000

***Izoh:** Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2024-yil 10-yanvardagi
VI-68-4-4-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq
xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) **mutlaq miqdorda**
1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan
kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

KOEFFITSIYENTLAR

T/R	Hududlar	Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi (SK 437 -moddasi)	koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	2024-yil uchun yer solig'ining stavkasi (so'mda)
1	Qarshi shahri	320	1,15	368
2	Shahrisabz shahri	320	1,15	368
3	G'uzor tumani	320	0,75	240
4	Dehqonobod tumani	320	0,65	208
5	Qamashi tumani	320	0,70	224
6	Qarshi tumani	320	0,80	256
7	Koson tumani	320	0,80	256
8	Kitob tumani	320	0,80	256
9	Muborak tumani	320	0,75	240
10	Nishon tumani	320	0,75	240
11	Kasbi tumani	320	0,70	224
12	Chiroqchi tumani	320	0,75	240
13	Shahrisabz tumani	320	0,80	256
14	Yakkabog' tumani	320	0,80	256
15	Mirishkor tumani	320	0,65	208
16	Ko'kdala tumani	320	0,70	224

Izoh: Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2024-yil 10-yanvardagi
VI-68-4-4-0-K/24-son qaroriga
3-ilova

**Yuridik shaxslar uchun (*yirik soliq to'lovchilardan tashqari*) mol-mulk solig'ini
hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal
miqdorga nisbatan qo'llaniladigan**

KOEFFITSIYENTLAR

T/R	Hududlar	Qo'llaniladigan koeffitsiyent (0,5 gacha kamayuvchi)
1	Qarshi shahri	1.00
2	Shahrisabz shahri	1.00
3	G'uzor tumani	0.80
4	Dehqonobod tumani	0.55
5	Qamashi tumani	0.80
6	Qarshi tumani	1.00
7	Koson tumani	0.90
8	Kitob tumani	0.90
9	Muborak tumani	0.65
10	Nishon tumani	0.60
11	Kasbi tumani	0.70
12	Chiroqchi tumani	0.75
13	Shahrisabz tumani	0.90
14	Yakkabog' tumani	0.90
15	Mirishkor tumani	0.55
16	Ko'kdala tumani	0.60